



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 31 mart

№ 1781

Ayrim sudyalarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 74, 79-moddasi va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq

Q A R O R Q I L A D I:

1. **Eshimbetova Darmon Urazbayevna** – odil sudlovni amalga oshirish chog‘ida qonuniylikni hamda Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun Toshkent shahar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

2. **Imomov Mansur Ne‘matovich** – yozma arizasiga binoan hamda Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo‘yicha Uchtepa tumanlararo sudining raisi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

3. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov